

HP BUKHARA
HAND PRINT

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: 5 E MODEL, YANGI AVLOD DARSLIKHLARI
VA XORIJIY TAJRIBALAR



**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI:
5 E MODEL, YANGI AVLOD DARSLIKHLARI
VA XORIJIY TAJRIBALAR**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TO'PLAMI

**IEA
TIMSS**

**IEA
PIRLS**

**2025-YIL
21-NOYABR**



-
8. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992.
9. Жалолиддин Румий. Ҳикматлар. Тошкент, “Шарқ”, 2008. Тўплаб нашрга тайёрловчи Э. Очилов.

О‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI TOPISHMOQLAR – О‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA

Asadova Aziza Ikrom qizi
BuxDPI magistranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishning dolzarb muammosi o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi “O‘qish savodxonligi” darsliklariga kiritilgan topishmoqlarning ushbu jarayondagi didaktik o‘rni va ilmiy-metodik ahamiyatini asoslashdan iborat. Maqolada topishmoq xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va boy manbasi sifatida tahlil qilinadi, uning o‘quvchilarda nafaqat mantiqiy fikrlash va kreativ tasavvurni, balki izchil va bog‘lanishli og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligi ochib boriladi. Shuningdek, topishmoqlar yordamida lug‘at boyligini oshirish, so‘z tanlash va fikrni erkin ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy-metodik yondashuvlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch tushunchalar: xalq og‘zaki ijodi, o‘qish savodxonligi, topishmoqlar, mantiqiy fikrlash, kreativ tasavvur, og‘zaki nutq, nutqiy kompetensiya, bog‘lanishli nutq.

Bugungi kunda ta‘lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani, ya‘ni fikrni erkin, ravon va mantiqiy bog‘lanishli ifodalash qobiliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida bolaning og‘zaki nutqi shakllanar ekan, bu jarayonga samarali yondashuvlar zarur. Afsuski, amaliyotda ko‘plab o‘quvchilar o‘z fikrlarini to‘liq, ifodali va mantiqiy ketma-ketlikda bayon etishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etishda o‘qish savodxonligi darsliklaridagi xalq og‘zaki ijodi namunalaridan – topishmoqlar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Og‘zaki nutqni rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari va topishmoq janrining o‘rni. Og‘zaki nutq inson kommunikativ faoliyatining asosiy ko‘rinishi bo‘lib, o‘quvchining nafaqat bilim olishini, balki shaxs sifatida shakllanishini ham belgilaydi. Lingvodidaktik nuqtai nazardan, og‘zaki nutq to‘rt asosiy ko‘nikmani o‘z ichiga oladi: tinglash, tushunish, gapirish va fikrni mantiqan bog‘lash. Boshlang‘ich sinflarda nutqni rivojlantirishning asosiy maqsadi – bu jarayonlarning **bog‘lanishli nutq** darajasiga ko‘tarilishini ta‘minlashdir.

Topishmoq janrining pedagogik – psixolingvistik ahamiyati. Maqolaning asosiy predmeti bo‘lgan topishmoqlar xalq pedagogikasining noyob namunasi sanaladi. Folklorshunos **M. Jo‘rayev** topishmoqni “insonning atrof-muhitini obrazli idrok etish mahsuli” sifatida baholaydi. Uning ta‘kidlashicha, topishmoqlar o‘zining qisqa, ritmik tuzilishi va metaforik mazmuni bilan

- **Mantiqiy tafakkurni faollashtiradi:** topishmoq matnidagi yashirin ma‘noni topish uchun o‘quvchi taqqoslash, analiz va sintez kabi mantiqiy amallarni bajaradi.

- **Lug‘at boyligini boyitadi:** topishmoqlar odatda tasviriy – obrazli so‘zlar, sinonim va omonimlar asosida qurilgan bo‘ladi, bu esa bolaning so‘z zaxirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

- **Diqqat va xotirani mustahkamlaydi:** Topishmoq matnini eslab qolish va undan kerakli "iz"ni topish o‘quvchidan yuqori darajadagi diqqatni jamlashni talab qiladi.

Quyida 4-sinf O‘qish savodxonligi darsligida berilgan bir – nechta topishmoqlardan namunalar keltirilgan bo‘lib, ular misolida o‘quvchilar og‘zaki nutqini rivojlantirish, lug‘at boyligini yaxshilash, topishmoqlarni yechish va izohlash jarayonida bog‘lanishli og‘zaki nutqni rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi.

Ushbu topishmoqlar o'zida o'xshatishlar va turli so'z turkumlarini (sifatlar, harakat fe'llari) saqlaganligi sababli, ularni tahlil qilish jarayoni avtomatik ravishda lug'at zaxirasini faollashtirish hamda grammatik jummalarni to'g'ri tuzishga xizmat qiladi. Misol uchun: Tinmay o'qisang agar, ko'p narsani o'rgatar, bilsang uka o'ylab top, bilim koni u(kitob). Topishmoqda o'quvchi "bilim koni, tinmay o'qisang agar" degan ta'riflar orqali mantiqan fikrlaydi va topishmoq javobini topa oladi. Bu usul orqali o'quvchida fikrni dalil bilan bog'lash va monologik nutq shakllanadi. **Tasviriy – ifodali nutq** shakllanishi uchun "Obrazni boyitish" usulidan foydalanish samarali natijalar beradi. (2-topishmoq) "Oltin kosada toshib turar, dala husnini ochib turar" topishmog'ining javobini topish uchun o'qituvchi oltin kosa iborasiga urg'u beradi, nima uchun dala husnini ochib turar? – degan savol orqali o'quvchilarning qay darajada tasviriy- ifodani tushuna olayotganlariga javob oladi. Topishmoq javobi topilgach, o'quvchilarga bug'doyzorni, mevali bog'larni, quyosh yoki tog'larni, umuman tabiatda uchraydigan predmetlarni topishga qaratilgan, iboralar bilan boyitilgan va qofiyaga amal qilgan holda topishmoqlar tuzish vazifasini beradi. Natijada o'quvchilar izlanishadi, ularda ijodkorlik qobiliyatlari ham o'sib boradi. "Rolli o'yin – topishmoqni hayotga ko'chirish" didaktik o'yini orqali ifodali va emotsional nutqni rivojlantirish mumkin. Bunda topishmoq matnini shunchaki o'qish emas, balki ifoda va hissiyot bilan o'qish yoki ijro etish orqali nutqiy ifodalilikni oshirish. (3-topishmoq) Sayrab tursam suyarlar, sayramasam so'yarlar, tushmayin deb qoshiqqa, zo'r beraman qo'shiqqa. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi, har bir guruh topishmoqni shunday o'qiydiki, ular sayrab turgan qushni, soyilishidan qo'rqib zo'r berib sayrayotgan bedananing obraziga kiradilar. Natijada o'quvchilar nutqiy intonatsiya, pauza va urg'u kabi elementlardan to'g'ri foydalanishga o'rganadi. Bu orqali o'quvchilar og'zaki nutqining ifodalilik darajasi oshadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tish joizki, "O'qish savodxonligi" darsliklariga kiritilgan topishmoqlarni yechishda, o'qituvchilar faqatgina javobni topish bilan cheklanmasdan, balki o'quvchilardan o'z javoblarini topishmoq matnidagi iboralar yordamida og'zaki asoslashni talab qilishlari lozim. Maktab o'quv dasturlarida topishmoqlar yordamida sintaktik va grammatik jihatdan to'g'ri, ifodali gaplar tuzishga qaratilgan maxsus nutqiy mashqlarni muntazam joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev A. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – T.: Musiqa, 2010. – 367 b.
3. Adizova, N. B., Olimova, S. U. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil qilishda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati. (2023, September).
4. Adizova N.B., Asadova A.I. "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi namunalarining o'rni va ahamiyati. 175–179-b. Durdon nashriyoti 2025.

“KREATIV YONDASHUV VA 5E MODEL INTEGRATSIYASI ORQALI O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH”

Qandimova Nasiba

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kreativ yondashuv va 5E modeli integratsiyasining ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ahamiyati yoritilgan. Kreativ yondashuv o'quvchilarda ijodiy fikrlash, yangicha qarash va muammolarga noodatiy yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi. 5E modeli esa konstruktivistik yondashuv asosida o'quvchini faol o'rganish, tushunish va baholash jarayoniga jalb etadi. Ushbu ikki yondashuvni integratsiyalash orqali ta'lim jarayonida o'quvchi markazli, interfaol va ijodiy muhit yaratiladi. Maqolada 5E modelining bosqichlari asosida kreativ faoliyatni rivojlantirish yo'llari hamda boshlang'ich sinflarda qo'llashning amaliy

misollari keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 5E modeli asosida tashkil etilgan kreativ ta'lim o'quvchilarning motivatsiyasi, tafakkur faolligi va ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: kreativ yondashuv, 5E modeli, konstruktivizm, innovatsion ta'lim, interfaol metod, ijodiy fikrlash, refleksiya.

Kirish. Kreativ yondashuv va 5E modeli integratsiyasi boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini o'quvchilarning faol ishtiroki, muammoli vaziyatlarni hal qilish, hamkorlikda o'qish va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarni birlashtirishga qaratilgan. Kreativ yondashuv o'quvchilarga shaxsiy ahamiyatli loyihalarda ishtirok etish, materiallar bilan tajriba qilish, va tengdoshlardan o'rganishga imkon beradi. 5E modeli (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) esa bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishga yordam beradi: o'quvchilar avval qiziqadilar, mustaqil izlanadilar, tushuntiradilar, chuqurlashtiradilar va baholaydilar. Integratsiya natijasida boshlang'ich sinflarda o'qituvchilar kreativ loyihalar va muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, hamda o'quvchilarning motivatsiyasi va o'quv natijalari oshadi. Ushbu integratsiya blended professional development, dizayn fikrlash (design thinking) va kreativ drama kabi elementlarni ham o'z ichiga olishi mumkin, bu esa nafaqat o'quvchilarning, balki o'qituvchilarning ham ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini, ya'ni tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash va raqamli savodxonlikni shakllantirishdir. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bu jarayonning poydevori hisoblanadi. Shu bois, o'qituvchilarning kreativ yondashuvi va zamonaviy pedagogik modellardan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. 5E modeli (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) – o'quvchilarda mustaqil fikrlashni, izlanishni va refleksiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali model sifatida tan olingan. Mazkur maqolada kreativ yondashuv va 5E modeli integratsiyasi asosida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Kreativ yondashuv –o'quvchilarda noodatiy fikrlash, mustaqil yechim topish, yangilik yaratish, hamda shaxsiy g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim metodologiyasi.

U o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ijodiy hamkorlik, g'oya almashinuvi, va muammoli vaziyatlar orqali o'rganishni talab qiladi ateriallari asosida hikoya tuzish topshirig'i beriladi.

5E modeli (Bybee, 1997) –konstruktivistik ta'lim nazariyasiga asoslangan, o'quvchini faol ishtirokchi sifatida o'rganishga jalb etuvchi bosqichli yondashuvdir.

Amaliy misol (boshlang'ich sinf uchun)

Mavzu: "Axborot nima?"

Integratsiya namunasi:

Engage: "Agar telefonda hamma ma'lumot yo'qolsa, nimalar bo'ladi?" –muammo savoli.

Explore: Guruhlar telefon, kitob, inson og'zaki axboroti orqali ma'lumot almashishni tahlil qiladi.

Explain: O'quvchilar o'z topilmalarini taqdim etadi.

Elaborate: "Kelajakda axborot yetkazuvchi robot" loyihasini chizadilar yoki maketini yasaydilar.

Evaluate: Guruhlar bir-birining ishini baholaydi, o'qituvchi ijodiy yondashuvni tahlil qiladi.

Integratsiyaning afzalliklari

O'quvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi; ijodiy fikrlash va muammoli tahlil rivojlanadi; ta'lim motivatsiyasi oshadi; o'qituvchi facilitator (yo'naltiruvchi) rolini egallaydi; o'rganish jarayoni interfaol va hissiy jihatdan boy bo'ladi.

Natija va mulohazalar.

Mavzu: “So‘z ma’nosi va majoziy ma’noli so‘zlar” (Sinflar: 3–4-sinf, “Ona tili” darsligi asosida)

Darsning maqsadi: kreativ yondashuv va 5E modeli asosida:

- o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash,
- muloqot qilish,
- axborotni tahlil qilish va qayta ifodalash,
- hamkorlikda ishlash kabi XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish.

1-bosqich: ENGAGE (Jalb etish)

Maqsad: O‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish va mavzuga motivatsiya yaratish.

Faoliyat: O‘qituvchi slaydda quyidagi iboralarni ko‘rsatadi:

“Qalb oynasi”, “Til qovun pishirdi”, “Qo‘li ochiq inson”.

Savol:

- Bu so‘zlarning barchasi rost ma‘nodami? Nega ularni “g‘alati” deb his qilamiz?
- O‘quvchilar taxminlar bildiradi, qiziqish uyg‘onadi, mavzuga kirishadi.

Kreativlik elementi: “Fantaziya savollari” –har kim o‘zicha bu iboralarni rasmda tasvirlaydi.

2-bosqich: EXPLORE (Izlanish)

Maqsad: O‘quvchilarni izlanish, kuzatish va solishtirish faoliyatiga jalb etish.

Faoliyat: Guruhlar quyidagicha ajratiladi:

1. Haqiqiy ma’noli so‘zlar guruhi
2. Majoziy ma’noli so‘zlar guruhi

Har bir guruhga kartochkalar beriladi, ularda so‘zlar yozilgan:

“yurak”, “oltin qo‘l”, “toza havo”, “temir odam”, “shirin so‘z” va hokazo.

O‘quvchilar ularni tahlil qilib, 2 toifaga ajratadi va sababini yozadi.

Kreativlik elementi: “So‘z hayoti” nomli mini o‘yin –har bir so‘z “gapiradi” (o‘quvchi uni personaj sifatida taqdim etadi).

3-bosqich: EXPLAIN (Tushuntirish)

Maqsad: O‘quvchilar topgan xulosalarini ifoda etish, ilmiy tushunchani shakllantirish.

Faoliyat: Guruh vakillari o‘z javoblarini taqdim etadi. O‘qituvchi tushunchani aniqlashtiradi:

“So‘zning ma’nosi –narsaning, hodisaning yoki belgining til orqali ifodalanishidir.

Majoziy ma’noli so‘zlar esa boshqa so‘z orqali obrazli tarzda ifodalanadi.”

4-bosqich: ELABORATE (Qo‘llash)

Maqsad: Olingan bilimni yangi vaziyatlarda qo‘llash, ijodiy fikrni rivojlantirish.

Faoliyat: O‘quvchilarga ijodiy topshiriq beriladi:

“O‘zing ixtiro qilgan 3 ta majoziy iborani yoz va ularning ma‘nosini tushuntir.”

Masalan:

“Qalam raqsga tushdi” – juda chiroyli yozish haqida.

“Ko‘zlari yulduzday yondi” – hayajonlangan payt.

“G‘oya uchib keldi” – kutilmagan fikr tug‘ilishi.

Kreativlik elementi: O‘quvchilar bu iboralarni rasm yoki kollaj tarzida tasvirlaydi.

5-bosqich: EVALUATE (Baholash)

Maqsad: Bilim, ijodiylik va muloqot ko‘nikmalarini baholash, refleksiya.

Faoliyat: O‘quvchilar o‘z ishlarini sinf oldida taqdim etadi.

Baholash mezonlari:

So‘zlardan to‘g‘ri foydalanish (1 ball)

Ijodiylik va noodatiylik (2 ball)

Muloqotda faol ishtirok (1 ball)

Guruh ishidagi hissa (1 ball)

So‘ngra o‘quvchilar “Men bugun o‘rgandim...” refleksiya kartasini to‘ldiradi.

5E modeli	Kreativ elementlari	yondashuv	Integratsiya shakli
Engage	Qiziqish, emotsional rag'bat	Fantaziya,	Muammoli savollar, metaforik kirish, mini-sahna yoki memlardan foydalanish
Explore	Izlanish, tajriba, g'oyalar oqimi		Guruhli ijodiy topshiriqlar, innovatsion echim topish
Explain	O'z fikrini erkin ifodalash, tahliliy ijod		O'quvchi tushunchani o'z tili bilan tushuntiradi, chizmalar yaratad
Elaborate	Yangilik kiritish, tasavvurni kengaytirish		Yangi holatlarda bilimni qo'llash, loyiha yoki modellashtirish
Evaluate	Refleksiya, baholash, o'z fikriga tanqidiy yondashuv		O'z-o'zini va guruh ishini baholash, ijodiy natijani himoya qilish

Xulosa va tavsiyalar. Kreativ yondashuv va 5E modeli integratsiyasi zamonaviy ta'limda o'quvchi shaxsini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Bu yondashuv orqali:

- o'quvchilar mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rganadi;
- ta'lim jarayoni interfaol, qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi;
- o'qituvchi o'rganish jarayonida yo'naltiruvchi va motivator rolini bajaradi.

Natijada, o'quvchilarda nafaqat bilim, balki ijodkorlik, refleksiya va muammoli tafakkur kabi XXI asr kompetensiyalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Bybee, R. W. (1997). Achieving Scientific Literacy: From Purposes to Practices. Portsmouth, NH: Heinemann.
3. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to be Creative. Capstone Publishing.
4. Jonassen, D. H. (2013). Learning to Solve Complex Scientific Problems. Routledge.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarori, 2018-yil 6-iyun –“Ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni joriy etish to'g'risida”.
6. Omonov A., Usmonova G. (2020). Ta'limda kreativ yondashuvning metodik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FAZOVIIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA 4K YONDASHUVINING O'RNI VA AHAMIYATI

Kasimov Fayzullo Muxammadovich

Buxoro davlat pedagogika instituti professori, p.f.n.

Qurbonova Adiba Nuriddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu ishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining fazoviiy tafakkurini shakllantirish jarayonida 4K yondashuvining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda 4K modeli – kreativlik (Creativity), tanqidiy fikrlash (Critical thinking), kommunikativlik